# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№1

2026
yanvar




Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

*Elektron nashr, 689 sahifa.*
*2026-yil, yanvar*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА....26
**Каракулов Фарход Зайпудинович**

TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI....33
**Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna**

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH....38
**Achilov Ilmurad Nematovich**

TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI....45
**Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o‘g‘li**

КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ....51
**Алиева Сусанна Сейрановна**

ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ....58
**Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич**

BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI....65
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**

KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA....71
**Ashurova Oltin Yuldashevna**

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI....78
**Xusanova Gulsum Baxtiyorovna**

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI....84
**Bekmurod Davlatmuratovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova**

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....89
**Atajanov Kamal Atavayevich**

AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI....96
**Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL....101
**Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich**

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEXANIZMLAR....108
**Tojiyev Sardor Dilmurod o‘g‘li**

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....113
**Shayxiyev Boburbek Ulug‘bekovich**

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA’LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI....120
**Abdullayev Javohir Abdumalik o‘g‘li**

GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI ........ 125
Ziynura sabirova

RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O‘RNI ........ 129
Otajonov Tohirjon Xo‘janazar o‘g‘li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ ........ 133
Кадирова Шарофат Амоновна

KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH ........ 139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich

O‘ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 143
Saidov Dilshodbek Razzakovich

QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI ........ 148
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА ........ 153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович

MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI ........ 161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich

INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI ........ 165
Aliyev Hasan Rayimjonovich

ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN ........ 171
Sharipov Kamil

SUN’IY INTELLEKT – TO‘RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI ........ 176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich

KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIY VA IQTISODIY MASALALARI ........ 187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich

TALABALARDA O‘Z-O‘ZINI TARTIBGA SOLISH KO‘NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA’LIM PLATFORMALARINING O‘RNI ........ 198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI ........ 203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich

XORAZM VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING O‘ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ........ 208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH ........ 213
Turdiyev Ulug‘bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug‘bek qizi

EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI ........ 217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o‘g‘li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS ....................222
Yovkochev Sherzod

ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI ....................228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li

MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH ........................232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich

DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR ........................................239
Sarvar Saidov Xayrulloyevich

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR ........................................244
Tashov Mizrob Maxmudovich

DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI........................................251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich

ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ........................................257
Айматова Фарида Хуразовна

ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI ....................263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna

ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ........................................267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI ....................275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ........................................279
Ли Илларион Георгиевич

KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH........................................284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li

СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ........................................291
Муталов Абдуазим

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........................................295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR ........................................302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich

QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY SALOHIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........................................310
Tuyev Abdurahmon Yusubopvich

TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI ........................................315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi

SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI....320
**Ulashev Xubbim Askarovich**

TURLI YO‘L SHAROITLARIDA TO‘QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI....324
**Uralbayev Anvar Ubaydullayevich**

YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI....328
**Sobirov Qo‘ziboy Erkinovich**

UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISHNI ZAMONAVIY YO‘LLARI....332
**Boboqulov S.B.**

TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR....338
**Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH....343
**Yo‘ldoshev Nodirbek Ne’matjon o‘g‘li**

NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI....349
**Jo‘rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi**

УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ....355
**Гимранова О. Б.**

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI....361
**Yuldashev Fozil Turapovich**

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI....373
**Jumanazarov Alisher Toshtemir o‘g‘li**

ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ....377
**Наимов Шохрух Шарофиддинович**

DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA’SIRI....383
**Eshev Furqat A’zamovich**

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА....388
**Рахимова Мадина Шухрат кизи**

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI....393
**Toshpo‘latov A. A.**

MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI....398
**Zufarova Zilola Rahim qizi**

RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI....403
**Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich**

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH....408
**Toshtemirov To‘lqin Toirjonovich**

АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)....411
**Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA’MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI ....416
**Rustamova Dilbar Rustamovna**

IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI ....423
**Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o‘g‘li**

METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI ....427
**Qayumov Oybek Azamat o‘g‘li, Ro‘ziyev Ulug‘bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o‘g‘li**

TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO‘JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI ....434
**Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod**

YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH ....443
**Raimjanova Madina Asrarovna**

O‘ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI ....448
**Azizova Roxila Baxodir qizi**

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ....452
**Isakova Naima Ikromjonovna**

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI ....459
**Bo‘ranboyeva Shoira Rustamovna**

“QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA’MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI” ....466
**Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora**

SMART TOURISM КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТСКИХ РЕГИОНОВ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И РЕГИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ ....471
**Усманова Азиза Баходировна**

XUFIYONA IQTISODIYOT KO‘LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA’MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O‘RNI ....477
**Atamurodov To‘lqin To‘ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich**

IQTISODIYOTDA TURIZM O‘RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI ....482
**Jumanova Zilola Tuychiyevna**

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI ....489
**Faxriddinov Temur Faxriddin o‘g‘li**

XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURSLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O‘RNI ....494
**Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o‘g‘li**

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O‘ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI ....500
**Ismailova Ma’mura Eldorovna**

MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O‘RNI ....506
**Yunusov Foziljon G‘ulomqodirovich**

XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH ....511
**Shodiyev Abbos Ne’mat o‘g‘li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o‘g‘li**

EKSPORT–IMPORT OPERATSIYALARI BO‘YICHA MUDDATI O‘TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO‘LLANILISHI VA SAMARADORLIGI ....517
**Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich**

SOLIQ SALOHIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI ........522
**Jurayev Xusan Atamuratovich**

IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS ........528
**Sobirov A. Abdurasul**

MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI ........533
**Masharipov Sardorbek Farxadovich**

TECHNOLOGY-DRIVEN VISITOR MANAGEMENT SYSTEMS FOR ENHANCING MUSEUM EXPERIENCE AND PERFORMANCE ........539
**Ibroximova Aziza Abbasovna**

XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI ........545
**Kurbonbekova Moxichexra Turobjonovna**

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA "AQLLI KON" KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH TAJRIBASI ........551
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA STRATEGIK TA'SIRI ........556
**Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li**

SAMARQAND VILOYATI SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILIY VA IQTISODIY XUSUSIYATLARI ........562
**Toxirova Gullola Mirkamolovna**

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ СТРЕЛКОВОГО СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........568
**Юсупов И.**

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ ........573
**Тарават Абдул-Салам**

MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI ........581
**Abduxamidov Sarvar Adxamovich**

MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARINI JORIY ETISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI ........586
**Ashurov Azizbek Ergash o'g'li**

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI ........592
**Qurbonova Muazzam Fazliddinovna**

MEHMONXONA SANOATIDA ESG TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI ........596
**Xusenova Mexrangiz**

DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH........600
**Amirova Dilshoda, Usmonova Shahrinoz Ilhom qizi**

MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINING ROLINI EMPIRIK JIHATDAN TAHLILI ........605
**Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich**

NITROGEN FIXATION CHARACTERISTICS OF AZOLLA CAROLINIANA UNDER THE INFLUENCE OF HEAVY METAL ($CR^{6+}$) ........610
**Sh. Azimov, E. Egamberdiev, S. Turabdajanov**

EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING TA'SIRI ........616
**Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

«O‘ZBEKNEFTGAZ» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «ESG» STANDARTLARINI JORIY ETISH ..........622
**Ibragimova Saodat Abdumo‘minovna, Xusainov Ravshan Raximovich**

O‘ZBEKISTON SANOATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI DINAMIK TAHLILI ..........627
**Ne’matov Shoxruxbek Ma’murjon o‘g‘li**

SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH: KLASSIK VA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..........634
**Ugay Darya Sergeevna, Raxmonov Doniyor Ixtiyor o‘gli, Mamanov Alisher Umbarovich**

MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INING EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING DINAMIK TAHLILI ..........642
**Ergashev Jamshid Axmadaliyevich**

KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI ..........647
**Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o‘g‘li**

KICHIK BIZNES SEKTOR FAOLIYATI IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA ..........652
**Batirova Raxima Abdujabbarovna, Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich**

MINTAQALAR MIQYOSIDA FARMATSEVTIKA SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR MAQSADLARI HAMDA ULARNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI ..........656
**O‘taganova Umida Egamberdi qizi**

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ..........663
**Nazirova Sayyora Baxtiyorovna**

MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO‘QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH ..........667
**Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich**

TADQIQOT DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH JARAYONIDA GIPOTEZALARNI SHAKLLANTIRISH, O‘ZGARUVCHILAR TIZIMINI TANLASH VA EKONOMET RIK IDENTIFIKATSIYA STRATEGIYASINI ASOSLASH ..........671
**Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li, Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM XIZMATLARI BOZORI HOLATI VA UNING MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH USULLARI ..........678
**Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich**

O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AKSIYALARI NARXINI O‘ZGARISHI TAHLILI ..........682
**Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich**

# O'ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AKSIYALARI NARXINI O'ZGARISHI TAHLILI

**Ibragimov G'anijon G'ayratovich**
Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i,
"Innovatsion menejment" kafedrasi v.b. dotsenti, PhD,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: g.ibragimov@tsue.uz
ORCID: 0009-0008-7188-2609

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari shaffofligini ta'minlash hamda ularning aksiyalarining ikkilamchi bozordagi narxlar o'zgarishini ochiq va ishonchli axborot sifatida taqdim etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxlarining o'zgarish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, Bernulli tasodifiy harakat modeli hamda Legandr ko'phadlari asosida qisqa muddatli prognozlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, texnik va fundamental tahlil usullari orqali aksiyalarni sotib olish va sotish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: aksiyalar narxi, fond bozori, Bernulli tasodifiy harakat modeli, Legandr ko'phadi, prognoz, sotib olish, sotish, texnik tahlil, fundamental tahlil.

Abstract. This article examines the issues of ensuring transparency of the economic indicators of joint-stock companies in the Republic of Uzbekistan and disclosing information on changes in share prices in the secondary market. The study analyzes the dynamics of share prices and the factors influencing their fluctuations. Short-term forecasts are developed based on the Bernoulli random walk method and Legendre polynomials. In addition, technical and fundamental analysis methods are applied to formulate conclusions and recommendations regarding stock purchase and sale decisions.

Keywords: stock price, stock market, Bernoulli random walk method, Legendre polynomial, forecast, purchase, sale, technical analysis, fundamental analysis.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения прозрачности экономических показателей акционерных обществ Республики Узбекистан, а также раскрытия информации об изменении стоимости их акций на вторичном рынке. В рамках исследования проанализирована динамика цен акций акционерных обществ и факторы, влияющие на их изменение. На основе метода случайного блуждания Бернулли и многочленов Лежандра разработаны краткосрочные прогнозы движения цен. Также применены методы технического и фундаментального анализа для формирования рекомендаций по операциям купли-продажи акций.

Ключевые слова: цена акций, фондовый рынок, метод случайного блуждания Бернулли, многочлен Лежандра, прогноз, покупка, продажа, технический анализ, фундаментальный анализ.

## KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatlarining investorlarga nisbatan shaffofligini ta'minlashdagi eng muhim omillardan biri fond bozorida aksiyalar qiymati (narxi)ning o'zgarishi hisoblanadi. Shu sababli aksiyalar narxlarining o'zgarishini iqtisodiy-statistik tahlil qilish bilan bir qatorda, ularni fundamental va texnik tahlil asosida baholash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda tahlil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi aksiyalari narxlarining o'zgarishini amaliyotda mavjud bo'lgan texnik tahlil usullari orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Qimmatli qog'ozlar bozori treyderlari turli xil savdo strategiyalaridan foydalanadilar hamda aktivlarni sotib olish, sotish yoki saqlashdan oldin ongli qarorlar qabul qilish uchun keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazadilar. Tahlil jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan ikki asosiy yondashuv — texnik tahlil va fundamental tahlil hisoblanadi. Har bir yondashuv bozor xatti-harakatlarini turli ma'lumotlar to'plamiga asoslangan holda talqin etib, investorlarga qaror qabul qilishda muhim yo'l-yo'riq beradi.

Aynan yuqoridagi tahlillar asosida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga investorlarni jalb etishda aksiyalar narxining bozor bahosini to'g'ri aniqlashda ushbu usullardan keng foydalanish zarurligi asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari shaffofligini ta'minlash hamda ularning ikkilamchi bozordagi aksiyalari qiymatining o'zgarishini ochiq e'lon qilib borish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Mazkur shaffoflikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishga ixtisoslashgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari qiymatining o'zgarishi va ularga ta'sir etuvchi omillar Bernulli tasodifiy harakat modeli asosida tahlil

qilinib, fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxining oʻzgarishini Legandr koʻphadi yordamida qisqa muddatli prognozlash masalalari ushbu maqolada koʻrib chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fond bozorida aksiyalarni tahlil qilishda eng koʻp qoʻllaniladigan usullardan biri Bernulli tasodifiy harakat modeli hisoblanadi. Mazkur model moliyaviy bozorlarda narxlarni prognozlashning murakkab usullaridan biri boʻlib, uni chuqur oʻzlashtirish uchun maʼlum vaqt va tajriba talab etiladi. Biroq, muvaffaqiyatli savdo faoliyatini amalga oshirish uchun ushbu usulning asosiy tamoyillarini bilish yetarli boʻlishi mumkin.

Bernulli tasodifiy harakat modeli murakkab jarayonlarni tahlil qilish bilan bogʻliq boʻlganligi sababli, ayrim olimlar tomonidan uni hozirgi bozor sharoitida toʻliq qoʻllash imkoniyati cheklangan, degan fikrlar bildiriladi. Biroq, ushbu metodning jahon amaliyotida keng qoʻllanilishi mazkur yondashuvdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu metodning nazariy asosi aksiyalarni baholashning texnik va fundamental tahlil usullariga tayanadi. Texnik tahlilchilar narx grafiklarini oʻrganish va tahlil qilishda turli xil koʻrsatkichlar hamda indikatorlardan foydalanadilar (Kasimov A. va boshqalar, 2023-yil, dekabr).

Qimmatli qogʻozlar bozoriga investitsiya qilish masalalari fundamental tahlildan tortib, axborot texnologiyalari tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan zamonaviy yondashuvlargacha boʻlgan keng doirani qamrab oladi. Bisadi V. (2025-yil) oʻz tadqiqotlarida investitsiya jarayonlarini “kuchli moliyaviy kelajakni shakllantirish boʻyicha asosiy qoʻllanma” sifatida talqin etib, anʼanaviy investitsiya tamoyillarini ilgʻor texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish zarurligini taʼkidlaydi.

Shu bilan birga, investorlar oldida aksiyalarga sarmoya kiritishning samaradorligi, moliyaviy risklarni kamaytirish, shuningdek, kriptovalyutalar kabi yangi moliyaviy instrumentlarni toʻgʻri baholash masalalari dolzarb boʻlib qolmoqda. Ushbu savollarga javob berish maqsadida Hörtnagl H. va Deutsch B. (2021-yil) oʻz ilmiy ishlarida investorlar uchun amaliy yechimlar va nazariy asoslarni keltirib oʻtganlar.

Yuqorida olib borilgan tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, texnik tahlilni grafik usul sifatida talqin qilish mumkin boʻlib, u narx harakati toʻlqinlarini bevosita oʻrganish orqali bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv investorlarning bozor sharoitlariga nisbatan reaksiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida aksiyalari harakatini Bernulli tasodifiy harakat modeli asosida tahlil qilish hamda Legandr koʻphadi yordamida aksiyalar narxining qisqa muddatli prognozini ishlab chiqish usuli investorlar uchun qaror qabul qilishda samarali metodologik yondashuvlardan biri boʻlishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida aksiyalar narxini oʻrganishda turli usullardan foydalanish investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar harakatlanuvchi oʻrtacha koʻrsatkichlarni oʻz ichiga oladi. Jumladan, maʼlum vaqt oraligʻida aksiya yoki boshqa qimmatli qogʻozlarning yopilish narxlarini qoʻshib hisoblash va olingan natijani tegishli savdo kunlari soniga boʻlish orqali aniqlanadigan texnik koʻrsatkichlar, trend chiziqlari, qoʻllab-quvvatlash va qarshilik darajalari hamda nisbiy kuch indeksi (RSI) kabi osilatorlar narx harakatining tezligi va oʻzgarishini oʻlchash imkonini beradi.

Biroq texnik tahlil maʼlum cheklovlarga ega, chunki u faqat tarixiy narx maʼlumotlariga tayanadi va aktiv qiymatiga taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan asosiy fundamental omillarni hisobga olmaydi. Ushbu yondashuv bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlari maʼlum darajada takrorlanadi, degan taxminga asoslanadi, bu esa har doim ham toʻgʻri boʻlavermaydi. Bundan tashqari, grafiklar va koʻrsatkichlarni sharhlash hamda tahlil qilish muayyan malaka va tajribani talab etadi.

Fundamental tahlil inflyatsiya darajasi, ish haqi, ishsizlik, yalpi ichki mahsulot (YAIM) kabi turli iqtisodiy, moliyaviy va sifat koʻrsatkichlarini tahlil qilish orqali aktivning haqiqiy qiymatini baholashga qaratilgan. Shuningdek, kompaniyalar daromad va foydaning oʻsish surʼatlari, foyda marjasi, qarz majburiyatlari darajasi, pul oqimlari, raqobatdosh ustunliklar hamda sanoat tendensiyalari boʻyicha baholanadi. Shu bilan birga, fundamental tahlil aniq va ishonchli maʼlumotlarni toʻplash, tarixiy maʼlumotlarga asoslangan kelajak prognozlarini shakllantirish hamda moliyaviy hisobotlar va makroiqtisodiy omillarni chuqur tushunishni talab qilishi bilan ajralib turadi.

Texnik va fundamental tahlil oʻrtasidagi asosiy farq ularning yondashuvi va metodologiyasida namoyon boʻladi. Texnik tahlil tarixiy narxlar va savdo hajmlarini tahlil qilish orqali narx harakatidagi qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan boʻlsa, fundamental tahlil aktiv qiymatini belgilovchi asosiy iqtisodiy omillarni oʻrganadi. Texnik tahlil asosan qisqa va oʻrta muddatli savdo operatsiyalari uchun qoʻllanilsa, fundamental tahlil koʻproq uzoq muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilishda qoʻllaniladi.

Xulosa qilib aytganda, texnik va fundamental tahlillar investitsiya qarorlarini baholash va qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir yondashuvning o‘ziga xos kuchli va zaif jihatlari mavjud bo‘lib, investorlar ularni birgalikda qo‘llashlari yoki o‘z investitsiya maqsadlari va vaqt ufqiga mos keladiganini tanlashlari mumkin.

Investitsion imkoniyatlar son jihatidan ko‘p bo‘lsa-da, ularning barchasi ham foydali emas. Turli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritishda to‘g‘ri fundamental tahlil o‘tkazish zarurligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Fundamental tahlil yuqori xavfga ega yoki kelajakda yuqori daromad keltirishi mumkin bo‘lgan aktivlarni aniqlash imkonini beradi va buning uchun professional moliyaviy tahlilchi bo‘lish shart emas. Treyderlar odatda moliyaviy bozorlarga ikki asosiy yondashuvdan biri orqali murojaat qiladilar: texnik yoki fundamental tahlil orqali. Texnik tahlil kelajakdagi narxlarni prognozlashda aksiyalarning tarixiy narx va hajm ma’lumotlariga tayanadi, fundamental tahlil esa aksiyaning ichki yoki “asosiy” qiymatini aniqlashga va bozor narxi ushbu qiymatdan chetga chiqadigan imkoniyatlarni izlashga qaratilgan. Samarali investitsiya faoliyati texnik va fundamental tahlil usullaridan birgalikda foydalanishni talab etadi (Bonga W. G., 2015-yil).

Qimmatli qog‘ozlarni tahlil qilish jarayoni oddiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin: sotib olish, sotish yoki ushlab turish. Biroq “uzoq muddatli ustun” yoki “qisqa muddatli pasayish” kabi tushunchalar uchraganida, ularni to‘g‘ri talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Brokerlik kompaniyalari ommaviy kompaniyalarni baholashda buxgalteriya hisobotlari, sanoat tahlillari va kompaniya rahbariyati bilan suhbatlar kabi usullardan foydalanadilar. Asosiy maqsad — aksiya narxi prognozining yaxshilanishi yoki yomonlashishini aniqlashdan iborat. Ko‘plab brokerlar va investorlar portfellari uchun mos investitsiyalarni tanlashda tahlilchilarning tavsiyalariga tayanadilar. Tavsiyalarning o‘zgarishi aksiyalarni sotib olish yoki sotishga olib kelishi va natijada aksiya narxiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) hamda boshqa tartibga soluvchi organlar tadqiqot hisobotlarining obyektiv va shaffof bo‘lishini, investorlar ishonchli va foydali axborot bilan ta’minlanishini hamda reytinglar kompaniya yoki tahlilchilarga shaxsiy manfaat keltirmasligini ta’minlashga qaratilgan qoidalarni ishlab chiqadilar.

Baholash tizimlarining aksariyati asosiy tavsiyalardan boshlanadi: sotib olish, sotish va ushlab turish. “Sotib olish” — tahlilchi hozirda xarid qilishni tavsiya etadigan aksiya, “sotish” — sotish lozim deb baholangan aksiya, “ushlab turish” esa portfelde saqlash mumkin bo‘lgan, biroq qo‘shimcha investitsiya kiritish maqsadga muvofiq bo‘lmagan aksiyadir. Ayrim kompaniyalar tahlilchilar fikrlarini ifodalashda harflar, raqamlar yoki ijobiy, salbiy va neytral kabi turli belgilardan foydalanadilar.

Elliott to‘lqinlari nazariyasiga ko‘ra impuls modellari ko‘pincha besh to‘lqinli tuzilmani shakllantiradi, uch to‘lqinli tuzatuvchi grafiklar esa turli o‘zgarishlarga xosdir. Bunda bitta to‘liq siklda ikki faza va sakkizta to‘lqin mavjud bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Jarayonda besh to‘lqinli impuls bosqichi shakllanadi va grafiklarda raqamlar bilan belgilanadi. Shundan so‘ng uch to‘lqinli tuzatuvchi bosqich paydo bo‘lib, u grafiklarda harflar bilan ifodalanadi. Agar shart bajarilsa, ikkinchi to‘lqin birinchi to‘lqinni tuzatadi va harf bilan belgilangan to‘lqinlar to‘liq sikl ketma-ketligini (1–5) to‘g‘rilaydi(1-rasm).




1-rasm. “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyatini aksiyalar narxini o‘zgarishida Elliot to‘lqini harakati[1]

1 Muallif ishlanmasi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir tendensiya ma'lum vaqt davomida amal qiladi va ushbu davr mobaynida barcha besh to'lqin shakllanadi. Shundan so'ng tuzatuvchi bosqich yuzaga kelishi mumkin, ba'zi holatlarda esa u kuzatilmaydi. Tuzatuvchi bosqich bo'lmagan hollarda ikki impuls to'lqin kuzatiladi va strukturada o'nta aniq ajratilgan segment shakllanadi. Savdo sessiyasi davomida professional treyderlar uchun ayrim to'lqinlar to'liq impulsiv harakat sifatida talqin qilinadi, chunki ular ilgari shakllangan va bozor ishtirokchilari tomonidan tasdiqlangan tendensiyaga amal qiladi.

Sifatli tahlil va Elliott to'lqinlari asosida tuzilgan prognozlar savdo operatsiyalariga kirish nuqtalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu jarayonda asosiy signal — kutilmagan va oldindan bashorat qilish qiyin bo'lgan impulsiv harakatning shakllanishidir. Mazkur harakat grafikda kuzatilishi bilan trend o'zgarishi yuz beradi. Yuqoriga yo'nalgan harakat aniqlanganda, pozitsiyaga kirish impuls to'lqinlaridan birida amalga oshiriladi. Savdo bitimlariga kirishning konservativ usuli Elliott to'lqinlari nazariyasiga muvofiq o'rtacha kichik turlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Mo'tadil variant tanlanganda, bitim ochish shartlari konservativ usulga yaqin bo'ladi, biroq farqi shundaki, sotib olish buyrug'i to'lqinning yakuni aniq ko'rinadigan nuqtada joylashtiriladi va grafikda "V" shaklida ifodalanadi. Zarur holatlarda bitim yopiladi(2-rasm).




2-rasm. "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyatini aksiyalar narxini o'zgarishini Bernulli tasodifiy harakat metodi ko'ra Lejandra ko'phadi funksiyalari orqali prognozining amaldagi holat bilan taqqoslama grafigi[2]

Topilgan qiymatlar asosida xatolik koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$\Delta К = \frac{|\Delta M|}{|\Delta P|} = \frac{|-212|}{|118{,}6|} = 1{,}78$$

$\Delta К$ qiymatlari bo'yicha quyidagi mezonlarni belgilab olamiz:

1. Agar, $\Delta К \geq 1$ bo'lsa, prognoz ko'rsatkichlari oxirgi kunlari teskari mutanosiblikni keltirib chiqaradi. Bunda, aksiyadorlik jamiyati aksiyalari "o'zgaruvchan" tamoyili asosida bozorda doimiy ravishda tebranib to'radi. Natijada investor tomonidan bu tamoyil asosida aksiyalarni sotib olish imkoniyatini pasaytirib yuboradi.

2. Agar, $0{,}5 \leq \Delta К < 1$ bo'lsa, progngoz ko'rsatkichlari deyarli oxirgi chegaralari yo'nalishi bir xil bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari qiymati o'sish darajasini ko'rsatadi. Bunda, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari

2 "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyatini aksiyalar narxini o'zgarishi orqali muallif tomonidan prognozi ishlab chiqilgan.

narxi "moslanuvchan" tamoyili asosida bozorda investorlarni jalb etish orqali, aksiyalarni o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlarini saqlab qoladi.

3. Agar, $0 \leq \Delta K < 0{,}5$ bo'lsa, prognoz ko'rsatkichlari barcha chegaralarda deyarli ustma-ust tushadi. Bunda, aksiyadorlik jamiyati aksiyalari narxi "o'suvchan" tamoyili asosida aksiya narxini barqarorligini ta'minlaydi. Aynan shu oraliqda $\Delta K$ qiymati investorlarni jalb etish chegarasini mak darajada oshiradi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini investorlar sotish imkonini oshiradi.

Olingan tahlillar asosida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxini prognoz qilish orqali quyidagi xulosaga kelindi:

- Bernulli tasodifiy harakat metodiga ko'ra Lejandra ko'phadi funksiyalari orqali aksiyalar narxini keyingi harakat yo'nalishini prognoz qilishda, koordinata o'qini tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori narxi va eng past narxi no'qtalari orqali absissa o'qini chizib olish maqsadga muvofiq;
- Lejandra ko'phadi funksiyalari orqali aksiyalar narxini o'zgarishi kunlar orqali (kamida 5 kun) olish prognoz aniqligini oshiradi;
- treyderlar ishlab chiqilgan prognozlar orqali ikkilamchi bozorda aksiyadorlik jamiyatini aksiyalarini sotish (sotib) olish imkoniyatini oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalar narxining ikkilamchi bozorda o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan holatlar bo'yicha quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Bernulli tasodifiy harakat metodi orqali aksiyadorlik jamiyati aksiyalari narxining harakatlanish grafigini investorlar uchun kuzatish imkoniyati yaratildi.
2. Bernulli tasodifiy harakat metodiga ko'ra Legandr ko'phadi funksiyalari (Turayeva G. va boshqalar, 2022-yil, dekabr) orqali "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati aksiyalari narxining tebranish amplitudasi aniq vaqt oralig'ida o'zgarishi kuzatildi.
3. "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini ikkilamchi bozorda sotish (sotib olish) chegarasini aniq baholash imkoniyati ishlab chiqildi.
4. "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozordagi narxi o'zgarishini Legandr ko'phadi funksiyalari orqali aniq baholash investorlarni jalb etish imkoniyatini yanada oshirishi asoslandi.
5. "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozordagi narxi o'zgarishini Bernulli tasodifiy harakat metodi qoidalariga tayangan holda Legandr ko'phadi funksiyalarini qo'llash orqali kunlik o'zgarish prognozi ishlab chiqildi.
6. "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozordagi narxi o'zgarishi korxona boshqaruv kengashi tomonidan olib borilayotgan dividend siyosati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi asoslab berildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baker, H. K., Filbeck, G., & Kiymaz, H. (2020). Equity markets, valuation, and analysis. Wiley. https://doi.org/10.1002/9781119632931
2. Bisadi, V. (2025). Stock market investing: From fundamental analysis to AI-powered insights. Independently published.
3. Bonga, W. G. (2015). The need for efficient investment: Fundamental analysis and technical analysis. SSRN Electronic Journal. https://doi.org/10.2139/ssrn.2593315
4. Donald, J. (2020). The lifestyle investor: The 10 commandments of cash flow investing for passive income and financial freedom (R. Levesque & M. Koenigs, so'zboshi). Lioncrest Publishing.
5. Graham, B., & Zweig, J. (2006). The intelligent investor: The definitive book on value investing (qayta nashr; W. E. Buffett, hamkor). HarperBusiness.
6. Graham, B., & Zweig, J. (2024). The intelligent investor: The definitive book on value investing (3-nashr). HarperBusiness.
7. Hörtnagl, H., & Deutsch, B. (2021). Crisis investing – mastering market cycles: The best choice for personal investing and managing crises (mindset, oltin va bitkoin bo'limlari bilan). Independently published.
8. Jakhon, K. S. (2021). Analysis of factors of intensive economic growth in Uzbekistan. JournalNX, 7(12), 310–315.
9. Kasimov, A., … & Usmanov, C. (2023-yil, dekabr). Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (333–343-betlar).
10. Muftaydinova, S. K., … & Abdullayev, S. I. (2022-yil, dekabr). Expression of the tyrosine kinase receptor (EPHA1) in the eutopic and ectopic endometrium of patients with deep infiltrative endometriosis using modern digital technologies. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (416–421-betlar).

11. Penn, A. Z. (2023). Technical & fundamental analysis for beginners (2 in 1 edition): Take $1k to $10k using charting and stock trends of the financial markets + grow your investment portfolio like a pro. Independently published.
12. Prokhorov, Y. V. (muharrir). (1988). Matematicheskiy entsiklopedicheskiy slovar' [Matematik ensiklopedik lug'at]. Moskva: Sovetskaya entsiklopediya.
13. Turayeva, G., … & Burxanov, A. (2022-yil, dekabr). Opportunities to use financial services – "1C PROGRAM". In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (556–561-betlar).

**muhandislik**

**& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100